

## ADVOKATURA: FAOLIYATI VA TASHKILIY SHAKLLARI

**Qodirova Go'zal Qodir qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12283491>

**Annotatsiya:** mazkur maqolada advokatura va uning faoliyati, tashkiliy shakllari, advokat shaxsi va bugungi kunda mamalakatimizda advokaturani rivojlantirishga qaratilgan ishlar borasida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** advokat, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik hay'ati, yuridik maslahatxona.

## ADVOCACY: ACTIVITIES AND ORGANIZATIONAL FORMS

**Kadirova Guzal is the daughter of Kadir**

National University of Uzbekistan Faculty of Social Sciences

Jurisprudence: direction of business law Stage 2 student

**Annotation:** this article covers opinions on the lawyer and his activities, organizational forms, personality of a lawyer and the work aimed at the development of a lawyer in our mamalakat today.

**Keywords:** lawyer, law bureau, law firm, Law jury, legal counsel.

## АДВОКАТУРА: ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ФОРМЫ

**Кадирова Гузал Кадир кизи**

Национальный университет Узбекистана Факультет социальных наук

Юриспруденция: направление делового права Студент 2-го курса

**Аннотация:** В данной статье освещаются вопросы адвокатуры и ее деятельности, организационных форм, личности адвоката и работы, направленной на развитие адвокатуры в нашей стране сегодня.

**Ключевые слова:** адвокат, адвокатское бюро, юридическая фирма, коллегия адвокатов, юридическая консультация.

Bugungi kunda dunyoda advokatura instituti rivojlanib bormoqda. Shular qatorida, mazkur institut O'zbekiston Respublikasida ham o'z ahamiyatiga ega bo'lib bormoqda.

Shu o'rinda ushbu kasbning paydo bo'lishi haqida birmuncha fikrlarni keltirib o'tsak. Advokaturaning dastlabki tuzilmalari Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Chunki o'sha vaqtlarda mazkur ikki mamlakat huquq sohasining rivojlanishiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan edi. Huquq sohalarining yaratilishi bilan shaxslarda o'zlarining huquqlarini himoya qilish masalasi o'rta qatag chiqq boshladi. Albatta hamma ham o'z huquqlarini to'la himoya qila olmas edilar. Shunday vaqtlarda advokatlar o'zlarining bilimi va notiqiligi bilan o'z mijozlarini himoya qilar edilar.

O'zbekiston advokatlik kasbi XX asrlarda paydo bo'la boshladi deb aytishimiz mumkin. Chunki, o'sha vaqtlarda o'zbek millatida ilk advokat sifatida e'tirof etiladigan shaxs – Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev tegishli ma'lumotni olib, advokatlik kasbi bilan shug'ullanishni boshlagan edi. Keyinchalik davlatimiz mustaqillikka erishgach, 1996-yilda ilk marotaba "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Keyinchalik soha rivoji bo'yicha yana bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Lekin eng asosiy yangilik va o'zgarish sifatida O'zbekiston Respublikasining 30.04.2023 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida advokatura uchun alohida bob ajratilganligini aytib o'tishimiz mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish dolzarb masalaga aylanib borayotganligi sabab, advokatura institutini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, advokat bo'lish uchun talab etiladigan yuridik stajning olib tashlanganligi, advokat stajyori va yordamchisi faoliyatini tashkil etish sohasida joriy etilgan yangiliklarni aytib o'tishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining XXIV-bobi advokatura institutiga bag'ishlangan bo'lib, advokaturaning mohiyati va vazifalari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni orqali advokatura faoliyat ko'rsatish shakli, uning vazifalari va huquqlari tartibga solingan.

Qonunga ko'ra, advokatura — huquqiy institut, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi.

Advokat - oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani [belgilangan tartibda](#) olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

Qonunga ko'ra, advokat advokatlik faoliyati bilan birgalikda haq to'lanadigan quyidagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin:

ilmiy va pedagogik faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;

patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;

shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat;

hakamlilik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida (sudlarida) sudya sifatidagi faoliyat.

Advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi.

Advokatura advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik hay'ati, yuridik maslahatxona shakllarida tashkil etilishi mumkin.

Advokatlik faoliyatining quyidagi turlari mavjud:

huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonunchilik yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar beradi;

fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi;

jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etadi; tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatadi.

hakamlilik sudida va xalqaro tijorat arbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshiradi.

Advokat qonunchilikda man etilmagan boshqa turdagi yuridik yordam ham ko'rsatishi mumkin.

Advokatning shaxsi daxlsiz. Advokatning daxlsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqlidir.

Advokatga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasiga, shaxsiy yoki foydalanishidagi transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish, uning telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, advokatni ko'zdan kechirish va shaxsiy tintuvdan o'tkazish, xuddi shuningdek uning pochta-telegraf jo'natmalarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish yoki olib qo'yish, advokatni majburiy keltirish, ushlab turish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning sanksiyasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi advokatga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurorlari, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga ko'ra jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas.

Advokatni yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko'rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki unga shunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarda advokatlarning roli beqiyos sanaladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ham o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir"<sup>1</sup> deya bejiz ta'kidlamagan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, advokatlik kasbini egallayman degan inson o'z ustida astoydil ishlasa, yetuk advokat bo'lishi uchun mamlakatda barcha sharoitlar yaratilmoqda.

---

<sup>1</sup> "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobi. Sh.M.Mirziyoyev. T., Toshkent-2021. 109-110 betlar

### References:

1. Mualliflar jamoasi “Advokatura” darslik. Toshkent 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining Krnstitutsiyasi. Toshkent 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni



INNOVATIVE  
ACADEMY